

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA			
1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Shaislamova Nargiza Kabilovna
baholash ishi, investitsiya va sug’urta kafedrasi dotsenti, PhD,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: shaislamovan2002@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7686-8995

Zohidova Ruxsora Komiljon qizi
tayanch doktorant
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: r.zohidova@tsue.uz
ORCID:0009-0004-1331-2246

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliya instrumentlari asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning institutsional-huquqiy asoslari tadqiq etilgan, ularni joriy etish bo‘yicha mintaqaviy tajriba tahlil qilingan hamda rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekistonda islom bankchiligi tizimini joriy etish bo‘yicha 2026-yilda qabul qilingan qonun normalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlari, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarining islomiy moliya sohasidagi amaliy tajribasi tashkil etgan.*

Tadqiqotda qiyosiy tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan holda O‘zbekistonning mintaqadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan islomiy moliyani rivojlantirishga institutsional tayyorgarlik darajasi baholangan. Investitsiya faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlari institutsional tayyorgarlik darajasi va ular bilan bog‘liq risk mezonlari asosida tizimlashtirilgan, shuningdek, eng qisqa muddatlarda amaliy natija berishi mumkin bo‘lgan moliyaviy instrumentlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes subyektlarini islomiy mikromoliyalashtirish va murobaha instrumentlari orqali moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, islomiy bank darchalari orqali lizing operatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida suveren va korporativ sukuklar investitsiya resurslarini jalb qilish hamda milliy kapital bozorini rivojlantirishda katta strategik salohiyatga ega ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, mazkur salohiyatni ro‘yobga chiqarish tegishli qonunchilik bazasini shakllantirish, kapital bozori faoliyatini va islomiy qimmatli qog‘ozlar emissiyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bilan bevosita bog‘liqligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *islomiy moliya, sukuk, takaful, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, islomiy bank oynalari, investitsiya, ikki tomonlama bank tizimi.*

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИСЛАМСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шаисламова Наргиза Кабиловна
доцент кафедры оценочное дело, инвестиции и страхование, PhD,
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: shaislamovan2002@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7686-8995

Зохидова Рухсора Комилджон кизи

докторант
Ташкентского государственного
экономического университета
E-mail: r.zohidova@tsue.uz
ORCID:0009-0004-1331-2246

Аннотация. *В статье исследуются институционально-правовые основы развития инвестиционной деятельности на основе инструментов исламского финансирования в Республике Узбекистан, анализируется региональный опыт их внедрения и определяются приоритетные направления дальнейшего развития. Информационную основу исследования составили положения принятого в 2026 году закона о внедрении исламского банкинга в Узбекистане, открытые данные Центрального банка Республики Узбекистан и международных организаций, а также практический опыт стран Центральной Азии в сфере исламских финансов.*

В ходе исследования с применением методов сравнительного анализа и экспертной оценки определён уровень институциональной готовности Узбекистана к развитию исламского финансирования в сравнении с другими странами региона. Систематизированы перспективные направления инвестиционной деятельности с учётом степени их институциональной готовности и сопряжённых рисков, а также выявлены инструменты, внедрение которых способно обеспечить наиболее быстрый практический эффект.

По результатам исследования разработаны предложения по совершенствованию механизмов финансирования субъектов малого бизнеса посредством инструментов исламского микрофинансирования и мурабахи, а также развития лизинговых операций через исламские банковские окна. Установлено, что суверенные и корпоративные сукук обладают значительным стратегическим потенциалом для привлечения инвестиционных ресурсов и развития национального рынка капитала. Вместе с тем реализация данного потенциала непосредственно связана с формированием соответствующей законодательной базы и принятием нормативно-правовых актов, регулирующих рынок капитала и выпуск исламских ценных бумаг.

Ключевые слова: *исламские финансы, сукук, такафул, мурабаха, мушарака, мудараба, иджара, окна исламского банкинга, инвестиции, дуальная банковская система.*

DIRECTIONS FOR DEVELOPING INVESTMENT ACTIVITIES BASED ON ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN

Shaislamova Nargiza Kabilovna

associate professor of the
department of valuation, investment and insurance
of Tashkent State University of Economics, PhD
E-mail: shaislamovan2002@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7686-8995

Zohidova Ruxsora Komiljon qizi

basic doctoral student at
Tashkent State University of Economics
E-mail: r.zohidova@tsue.uz
ORCID:0009-0004-1331-2246

Abstract. *This article examines the institutional and legal framework for the development of investment activities based on Islamic financial instruments in the Republic of Uzbekistan, analyses regional experience in their implementation, and identifies priority areas for further development. The research draws on the provisions of the 2026 law introducing Islamic banking*

in Uzbekistan, publicly available data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and international organisations, and the practical experience of Central Asian countries in Islamic finance.

Using comparative analysis and expert assessment methods, the study evaluates Uzbekistan's institutional readiness for the development of Islamic finance in comparison with other countries in the region. The study systematises potential investment areas by their level of institutional readiness and associated risks. Furthermore, the study identifies financial instruments whose implementation could generate the most immediate practical benefits.

Based on the research findings, recommendations are developed to improve financing mechanisms for small businesses through Islamic microfinance and Murabaha instruments, as well as to promote leasing operations through Islamic banking windows. The study establishes that sovereign and corporate Sukuk have significant strategic potential for attracting investment resources and developing the national capital market. However, the realisation of this potential is directly dependent on the establishment of an appropriate legislative framework and the adoption of regulatory acts governing the capital market and the issuance of Islamic securities.

Keywords: *Islamic finance, sukuk, murabaha, takaful, musharaka, mudaraba ijara, Islamic banking windows, investment, dual banking system.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida investitsiya resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi, moliyaviy bozorlarning diversifikatsiyalashuvi hamda muqobil moliyalashtirish mexanizmlariga ehtiyojning kuchayishi islomiy moliya tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini oshirmoqda. Islomiy moliya an’anaviy foizga asoslangan moliyalashtirishdan farqli ravishda real aktivlar bilan ta’minlangan moliyaviy operatsiyalar, risk va daromadlarni taqsimlash, shuningdek, shariat tamoyillariga muvofiqlik asosida investitsiya resurslarini safarbar etish imkoniyatini yaratadi. Xususan, murobaha, mushoraka, muzoraba, ijara va sukuk kabi moliyaviy instrumentlar ishlab chiqarish, infratuzilma, tadbirkorlik va kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda xalqaro moliya bozorlarida islomiy moliya instrumentlaridan foydalanish ko‘lami kengayib, ular investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning muhim muqobil manbalaridan biriga aylanmoqda. Mazkur instrumentlar nafaqat islomiy moliya tamoyillariga amal qiluvchi investorlar, balki moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, investitsiya risklarini taqsimlash va real iqtisodiyot bilan moliyaviy sektor o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashga intilayotgan investorlar uchun ham istiqbolli imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faolligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususiy sektor va kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish sharoitida islomiy moliya mexanizmlarini rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, mamlakatda islom bankchiligi tizimini joriy etishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarining ilgari surilishi ushbu sohada yangi institutsional va huquqiy imkoniyatlarni shakllantirmoqda. Bu esa islomiy moliya instrumentlaridan investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda islomiy moliya instrumentlarini amaliyotga joriy etish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, islomiy moliya operatsiyalarini tartibga soluvchi institutsional-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, islomiy moliya xizmatlarini ko‘rsatuvchi moliya institutlari faoliyatini rivojlantirish, shariat tamoyillariga muvofiqlikni ta’minlash, malakali mutaxassislar tayyorlash, islomiy moliya instrumentlari bo‘yicha aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda xalqaro tajribani milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda murobaha va islomiy mikromoliyalashtirish mexanizmlaridan, investitsiya loyihalarini

moliyalashtirishda mushoraka va muzoraba instrumentlaridan, uzoq muddatli investitsiya resurslarini jalb qilishda esa suveren va korporativ sukuklardan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash zarur. Bunda har bir instrumentning iqtisodiy samaradorligi, institutsional tayyorgarlik darajasi, risklari va amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kompleks baholash muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, xalqaro tajribani milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish, ustuvor moliyaviy instrumentlarni aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda islomiy moliya tamoyillari va instrumentlari asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy hamda institutsional-huquqiy asoslarini takomillashtirish, xalqaro tajribani milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish, investitsiya resurslarini jalb etish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Global islomiy moliya bozorining kapital hajmi manbalarga qaraganda, taxminan 4 trillion AQSh dollari va undan yuqori deb baholanadi [1]. Islomiy banklar, sukuk (islomiy obligatsiya), takaful (islomiy sug‘urta) va islomiy fondlar mazkur moliya bozorining asosiy segmentlarni tashkil qiladi. O‘zbekiston uchun masalaning amaliy ahamiyati 2026-yilda yanada oshdi: mamlakatda islomiy bank faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilindi va u 2026-yil 29-iyunda kuchga kirdi [2].

Islomiy moliya mahsulotlariga ichki talab ham bor. Markaziy bank rahbariyati keltirgan BMT Taraqqiyot dasturi so‘rovnomasiga ko‘ra, aholining 68 foizi va tadbirkorlarning 60 foizi diniy e’tiqodi sababli an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanishni istamaydi [3]. Fitch Ratings Jahon banki ma’lumotlariga tayanib, 2024-yilda O‘zbekiston aholisining 40 foizi bank xizmatlaridan foydalanmaganini qayd etgan [4]. Demak, islomiy moliya bank tizimidan tashqarida qolayotgan jamg‘armalarni rasmiy moliya sektoriga jalb qilish vositasi bo‘la oladi.

Shunga qaramay, qonunchilik bazasining yaratilishi o‘z-o‘zidan investitsiya oqimini ta’minlamaydi. Sukuk chiqarish mexanizmlari, shariat nazorati, soliq tartibi, sud amaliyoti va investorlar ishonchi kabi masalalar alohida e’tiborni talab qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy asoslash va ularning amalga oshirilish ketma-ketligini taklif qilishdir.

Maqsaddan quyidagi **tadqiqot savollari** kelib chiqadi:

1. O‘zbekistonda islomiy moliya uchun qanday institutsional-huquqiy asos shakllandi va u qaysi bosqichlarda rivojlanmoqda?
2. O‘zbekistonning tayyorlik darajasi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan solishtirganda qanday?
3. Qaysi investitsiya yo‘nalishlari eng yuqori potensial va eng qulay amalga oshirish sharoitiga ega?

Adabiyotlar sharhi

Islom moliyasi modeli, uning asosiy instrumentlari va investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliyasi tartib-qoidalari hamda xususiyatlari xorijlik iqtisodchi olimlar: M. Mannan, S. Hasanuzzaman, T. Mokhammad, A. Shahed, N. Karim, M. Tarazi, Z. Reilli, Z. Abdullah, A.Susamto, H.Hussain, M.Holzhacker, A.Shahmoradi, R.Turk, N.Khan, A.Isahaque, A. Zulkarnain ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. [5,6,7,8,9,10,11,12,13] O’zbekistonlik olimlardan O. Astanakulov, N. Jumayev, A. Tursunov, R. Zayniddinov, I. Zaripov, O‘. Xaydarov, X. Jo‘raev, I.Isxakov, I.Ayubov ilmiy tadqiqotlarida investitsiya kategoriyasi va uni jalb qilish vositalari, islom moliyasi asosida loyihalarni moliyalashtirishning o‘ziga xos jihatlari, tijorat banklarida islomiy xizmatlarni joriy qilish va rivojlantirish masalalari o‘rganilgan.[14,15,16,17,18,19,20]

Biroq bu tadqiqotlarning aksariyati 2026-yilgi qonun o‘zgarishlaridan oldin yozilgan va

ularda islomiy moliyalashtirishga faqat mikromoliya tashkilotlari doirasida ruxsat berilgan sharoit tahlil qilingan. Qonun kuchga kirgandan keyin O‘zbekistonning institutsional tayyorligi mintaqa mamlakatlari bilan qiyosiy baholanmagan, investitsiya yo‘nalishlari esa potensial, tayyorlik va xavf mezonlari bo‘yicha birgalikda tizimlashtirilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari ribo (foiz), g‘arar (haddan tashqari noaniqlik) va maysir (qimor) kabi unsurlarni man etish hamda moliyaviy operatsiyaning real aktivga asoslanishi talabiga tayanadi. Xalqaro amaliyotda bu tamoyillar AAOIFI[15] va IFSB[16] standartlari orqali tartibga solinadi. Standartlar shartnoma turlari, shariat boshqaruvi, kapital yetarliligi va sukuk tuzilmalariga oid talablarni belgilaydi.

Asosiy moliyalashtirish shartnomalari quyidagilardir:

• Murabaha – bank aktivni sotib olib, kelishilgan ustama bilan mijozga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotadi;

• Ijara – aktiv lizing asosida foydalanishga beriladi, ba’zan oxirida mulkka o‘tkaziladi;

• Musharaka – tomonlar kapital bilan ishtirok etib, foyda kelishilgan ulushda, zarar esa kapital ulushiga mutanosib taqsimlanadi;

• Mudaraba – bir tomon kapital, ikkinchi tomon boshqaruv va mehnat bilan ishtirok etadi;

• Sukuk – aktiv yoki loyihadagi ulushga egalikni tasdiqlovchi islomiy qimmatli qog‘oz; agentlik, savdo, ijara va sheriklik asosidagi turlari mavjud.

Iqtisodiy adabiyotlarda islomiy moliyaning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun uchta afzalligi ko‘rsatiladi:

1) moliyaviy inklyuziyani kengaytirish (ya’ni bank xizmatidan chetda qolgan odamlarni ham moliya tizimiga olib kirish)

2) moliyaviy barqarorlikni oshirish (pul real mol-mulk yoki ish bilan bog‘langani uchun xavf kamayadi)

3) Fors ko‘rfazi hamda Janubi-Sharqiy Osiyo investorlarini jalb qilish. Tanqidchilar esa uchta kamchilikni aytadi: islomiy mahsulotlar amalda oddiy kreditga o‘xshab qolishi, qoidalar hamma joyda bir xil emasligi va malakali mutaxassislar kamligi. O‘zbekiston uchun yana bir xavf bor: huquqshunoslarning aytishicha, nizo yuzaga kelganda, sudlar islomiy shartnomani islomiy qoidalarga emas, oddiy fuqarolik qonuniga qarab hal qilib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun Fuqarolik va Soliq kodekslariga kiritilgan o‘zgartirishlar amalda qanday ishlashi muhim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifat tahliliga asoslangan bo‘lib, quyidagi usullardan foydalanildi: Qiyosiy tahlil: Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston tajribasi O‘zbekiston bilan beshta mezon bo‘yicha solishtirildi;

Ekspert baholash: investitsiya yo‘nalishlari 1 dan 5 gacha shkalada potensial, tayyorlik va xavf mezonlari bo‘yicha muallif tomonidan baholandi;

Tizimli yondashuv: natijalar bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiyalariga aylantirildi.

Cheklov. Ma’lumotlar ochiq manbalardan olingan va 2026-yil noyabr holatiga tegishli. Ekspert baholar muallifning shaxsiy xulosasi bo‘lib, ularni keyingi tadqiqotlarda so‘rovnoma yoki Delfi usuli bilan tasdiqlash tavsiya etiladi. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bo‘yicha

[15] Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (The Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI)) - Islom moliya sanoati uchun xalqaro standartlarni belgilovchi organ bo'lib, uning bosh qarorgohi Bahraynda joylashgan. Uning standartlari butun dunyo bo'ylab Islom moliya institutlari amaliyotlarini uyg'unlashtirishga, shariat tamoyillariga rioya qilinishini ta'minlashga va moliyaviy operatsiyalarda shaffoflik, hisobdorlik va boshqaruvni rivojlantirishga qaratilgan.

[16] Islom Moliya Xizmatlari Kengashi (The Islamic Financial Services Board - IFSB) - xalqaro standartlarni belgilovchi tashkilot bo'lib, u bank ishi, kapital bozorlari va sug'urta sektorlarini qamrab oluvchi global prudensial standartlar va sanoat uchun yo'naltiruvchi tamoyillarni chiqarish orqali Islom moliya xizmatlari sanoatining mustahkamligi va barqarorligini targ'ib qiladi va kuchaytiradi. IFSB shuningdek, sanoat bilan bog'liq masalalar bo'yicha tadqiqotlar olib boradi va tashabbuslarni muvofiqlashtiradi, shuningdek, tartibga soluvchilar va sanoat manfaatdor tomonlari uchun davra suhbatlari, seminarlar va konferensiyalar tashkil qiladi.

ma’limotlar umumiy ochiq ma’lumotlarga asoslangan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda islomiy moliyaning institutsional-huquqiy bosqichlari to’g’risida to’xtalganda, Markaziy bank rahbariyati bayonotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda islomiy moliya uch yo‘nalishda – islomiy mikromoliyalash, islomiy bank faoliyati va islomiy kapital bozori bo‘yicha rivojlantirilmoqda. 1-jadvalda bu bosqichlar umumlashtirilgan.

1-jadval.

O‘zbekistonda islomiy moliyani joriy etish bosqichlari (2026-yil noyabr holatiga)

Bosqich	Mazmuni	Huquqiy asos / holat	Investitsion ahamiyati
1. Islomiy mikromoliyalash	Kichik hajmdagi shariatga mos moliyalashtirishni sinovdan o‘tkazish	Amalga oshirilgan; ommaviy axborot vositalari segment so‘nggi besh yilda taxminan besh barobar o‘sib, 22 mln dollarga yetganini xabar qiladi	Past kirish to‘sig‘i, aholini rasmiy moliyaga jalb qilish
2. Islomiy bank faoliyati	To‘liq islomiy banklar va an’anaviy banklar huzuridagi islomiy oynalar; ikki tomonlama bank modeli	№ O‘RQ-1126 qonun (27.03.2026), 29.06.2026 da kuchga kirgan; litsenziyalash qoidalari yakunlangan, Markaziy bank huzurida Islomiy moliya kengashi tuzilgan	Murabaha, ijara, musharaka asosida kredit portfeli va depozit bazasini shakllantirish
3. Islomiy kapital bozori	Suveren va korporativ sukuk chiqarish asosi	Kapital bozori to‘g‘risidagi qonun loyihasi 2026-yil 28-iyulda Qonunchilik palatasida birinchi o‘qishda qabul qilingan; sukuk bo‘yicha alohida bob mavjud	Infratuzilma va energetika loyihalari uchun uzoq muddatli resurs
Qo‘shimcha	Strategik rejalashtirish	2026–2030-yillarga mo‘ljallangan besh yillik yo‘l xaritasi ishlab chiqilmoqda; Malayziyaning INCEIF universiteti bilan hamkorlik	Shariat boshqaruvi, litsenziyalash va kadrlar tayyorlash

Manba: muallif tomonidan KPMG, Kinstellar, Kun.uz, Trend va Bernama ma’lumotlari asosida tuzildi.

1-jadval ma’lumotlaridan O‘zbekistonda islomiy moliya ketma-ket, “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida rivojlantirilayotganligini ko‘rish mumkin: avval kichik miqyosdagi mikromoliyalash, so‘ng bank sektori, eng oxirida kapital bozori. Bu yondashuv xavfni kamaytiradi, ammo investitsiya nuqtayi nazaridan eng katta hajmli vosita – sukuk – hozircha huquqiy bo‘shliq bosqichida turibdi. Shuningdek, islom moliyasini rivojlantirish maqsadida mamlakatda Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Markaziy bank to‘g‘risidagi va banklar to‘g‘risidagi qonunlarga o‘zgartirishlar kiritilgani sababli islomiy mahsulotlarning soliq va huquqiy neytralligi masalasi asosan hal qilingan. Mamlakat qonunchiligi shuningdek, murabaha, musharaka va sukuk kabi modellarga ruxsat beradi va Markaziy bankka islomiy moliya standartlarini tasdiqlash vakolatini beradi.

Qonunning ikki asosiy vazifasi e’tiborga loyiq: birinchidan, Islom Hamkorligi Tashkiloti (Organisation of Islamic Cooperation (OIC)) ga a’zo mamlakatlaridan investitsiya jalb qilish, ikkinchidan, norasmiy iqtisodiyotdagi mablag‘larni bank tizimiga olib kirish. Shu sababli islomiy moliya O‘zbekistonda nafaqat yangi mahsulot, balki ichki jamg‘arma bazasini kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish orqali O’zbekistonda islomiy moliyalashtirishga mamlakat qanchalik tayyor ekanligini aniqlanadi.

O‘zbekistonning tayyorlik darajasini baholash uchun beshta mezon tanlandi:

1) islomiy bank faoliyatini tartibga soluvchi qonun;
2) shariat boshqaruvi yoki islomiy moliya bo‘yicha markaziy kengash;
3) sukuk chiqarishning huquqiy asosi;

4) amalda sukuk chiqarilganligi;

5) faoliyat yuritayotgan islomiy bank yoki oynalar.

Har bir mezon uchun to‘liq bajarilsa 1 ball, qisman bajarilsa 0,5 ball, bajarilmasa 0 ball berildi.

O‘zbekiston huquqiy asos va nazorat institutlari (1-2-mezonlar) bo‘yicha qo‘shni davlatlar bilan teng darajaga chiqdi, biroq amaliy bozor mezonlari (4-5) bo‘yicha ortda qolmoqda (2-jadval). Aynan sukuk bozori bo‘yicha farq eng katta: Qozog‘iston chakana sukuk va avtomobil moliyalashtirish dasturlarini ishga tushirgan, Qirg‘iziston milliy valyutadagi sukukni, Tojikiston esa Alif Bank orqali sukuk dasturini boshlagan. O‘zbekistonda esa suveren sukuk dasturi rejalashtirilgan, lekin hali chiqarilmagan. 2026-yil aprelida Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan 1 milliard dollar ekvivalentidagi uch yillik suveren obligatsiyalar an’anaviy obligatsiya bo‘lib, sukuk hisoblanmaydi. Shu bilan birga Moody’s baholashiga ko‘ra, Qozog‘iston va O‘zbekiston kelgusi uch-besh yilda mintaqada islomiy moliya kengayishining asosiy harakatlantiruvchilari bo‘lishi kutilmoqda.

2-jadval.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida islomiy moliya tayyorligi mezonlari (ball)

Mezon	**Qozog‘iston**	**Qirg‘iziston**	**Tojikiston**	**O‘zbekiston**
1. Islomiy bank qonuni	1	1	1	1
2. Shariat/islomiy moliya kengashi	1	0,5	0,5	1
3. Sukuk uchun huquqiy asos	1	1	0,5	0,5
4. Amalda sukuk chiqarilgan	1	1	1	0
5. Faoliyat yuritayotgan islomiy bank/oynalar	1	0,5	0,5	0,5
Jami (5 balldan)	**5,0**	**4,0**	**3,5**	**3,0**

Manba: muallifning ochiq ma’lumotlarga asoslangan baholashi. Qozog‘iston 2025-yilda dastlabki chakana sukukni, Qirg‘iziston 2023-yilda milliy valyutadagi sukukni, Tojikistonning Alif Bank 5 mln dollarlik birinchi sukuk transhini chiqargani haqidagi ma’lumotlardan foydalanildi.

O‘zbekiston sharoitida islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning yettita yo‘nalishi ajratildi va ular uchta mezon bo‘yicha baholandi:

-potensial (bozor hajmi va investitsion jozibadorlik);

-tayyorlik (qonunchilik, infratuzilma va kadrlar mavjudligi);

-xavf (huquqiy, kredit va reputatsion xavflar; yuqori ball – yuqori xavf). “Tafovut” ko‘rsatkichi potensialdan tayyorlikni ayirish yo‘li bilan hisoblandi: u qancha katta bo‘lsa, shuncha ko‘p tayyorgarlik ishlari talab etiladi.

3-jadval.


Investitsiya yo‘nalishlarining ekspert bahosi (1–5 shkala)

№	Yo‘nalish	Potensial	Tayyorlik	Xavf	Tafovut
1	Islomiy mikromoliyalash	4	4	2	0
2	Islomiy banklar va oynalar orqali murabaha/ijara asosida kichik biznesni moliyalash	5	4	3	1
3	Suveren sukuk	5	2	3	3
4	Korporativ sukuk (energetika, infratuzilma, ko‘chmas mulk)	4	2	3	2
5	Islomiy davlat-xususiy sheriklik va musharaka loyihalari	4	2	4	2
6	Islomiy fondlar va takaful	3	1	3	2
7	Raqamli islomiy moliya (fintech, mobil ilovalar)	3	3	3	0

Manba: Muallifning ekspert baholashi (ochiq manbalar asosida; so‘rovnoma bilan tasdiqlangan).

3-jadvaldan uchta guruh ko‘rinadi. Birinchi guruh – tezkor natija beradigan yo‘nalishlar (1, 2 va 7): ularda tayyorlik darajasi potensialga yaqin, xavf esa nisbatan past yoki o‘rtacha. Bu yo‘nalishlar qonun kuchga kirgan zahoti ishga tushishi mumkin.

Ikkinchi guruh – strategik yo‘nalishlar (3 va 4): potensial yuqori, ammo tayyorlik past, tafovut 2-3 balga teng. Suveren sukuk eng katta tafovutga ega, chunki u kapital bozori qonunini, shariat nazoratini va aktivlarni ajratish mexanizmlarini talab qiladi. Biroq suveren sukuk bozor uchun etalon (benchmark) hosil qiladi va korporativ qimmatli qog’ozlar emissiyasiga yo‘l ochadi.



1-rasm. Investitsiya yo‘nalishlarining potensiali va tayyorlik darajasi

Manba: Muallifning ekspert baholashi, 3-jadval asosida · 2026-yil noyabr holati

Uchinchi guruh – islomiy davlat-xususiy sheriklik va musharaka loyihalari: potensiali yuqori bo‘lsa-da, xavf eng yuqori (4 ball), chunki zarar taqsimlanishi, loyiha boshqaruvi va sud himoyasi murakkab. Takaful va islomiy fondlar esa tayyorlik jihatidan eng past (1 ball) bo‘lib, bu sohada kadrlar va nazorat tizimi alohida shakllantirilishi zarur.

1-rasmda potensial va tayyorlik ko‘rsatkichlari yo‘nalishlar kesimida taqqoslangan.

Mazkur grafik 3-jadval ma’lumotlariga asoslangan. Ustunlar orasidagi farq tayyorgarlik ishlari hajmini ifodalaydi: suveren sukuk, korporativ sukuk va PPP/musharaka loyihalarida bu farq eng katta. Mikromoliyalash va raqamli mahsulotlarda potensial va tayyorlik teng, shu sababli ular birinchi bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Olingan natijalar O‘zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirishning to‘rtta muhim qonuniyatini ko‘rsatadi.

Birinchidan, Islomiy bank qonuni ikki tomonlama bank tizimini yaratdi, biroq investorlar uchun asosiy talab – bozorda yetarlicha ishtirokchi va mahsulot bo‘lishi hamda xohlagan paytda aktivni oson sotish imkoniyati. Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ishonchli chiqarishlar va muntazam mahsulotlar qatori bozor ishtirokchilarining ishonchini shakllantiradi.

Ikkinchidan, kapital bozori yo‘nalishi eng katta ichki va tashqi investitsiya oqiminiga yo’l ochishi mumkin. Kapital bozori to‘g‘risidagi qonun loyihasida agentlik, savdo, ijara va sheriklik asosidagi sukuk turlari nazarda tutilgan. Markaziy bank suveren sukuk dasturini boshlash niyatini bildirgan. Suveren sukukning afzalligi shundaki, u davlat byudjetiga ta’sir qilmasdan infratuzilma loyihalarini aktivga asoslangan moliyalashtirish, shuningdek Fors ko‘rfazi investorlari uchun ishonchli instrument yaratadi. Malayziya tajribasi bu borada namuna bo‘lib, O‘zbekiston INCEIF[17] bilan hamkorlikda sukuk, litsenziyalash va shariat boshqaruvi sohalarida tajriba

[17] INCEIF universiteti - Malayziya islom universiteti bo‘lib, 2005-yilda Malaysianing Bank Negara (Malayziya Markaziy banki) tomonidan islom moliya sanoati uchun inson kapitali sohasida tashkil etilgan. Ilgari u Islom moliyasining global universiteti va Islom moliyasining xalqaro ta’lim markazi (INCEIF- International Center for Education in Islamic Finance) sifatida tanilgan.

almashmoqda.

Uchinchidan, asosiy risklar huquqiy va institutsional tabiatga ega. Sudlarning islomiy shartnomalarni an’anaviy fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan talqin qilish xavfi, shariat kengashlari qarorlarining bir xil bo‘lmasligi, malakali kadrlar tanqisligi va mijozlarning islomiy mahsulotlar haqidagi bilim darajasi pastligi investitsiya jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, “shariatga muvofiq” deb nomlangan mahsulot haqiqatan ham shariatga mos bo‘lmasa, odamlarning ishonchi yo‘qoladi va bu butun islomiy moliya sohasiga salbiy ta’sir qiladi.

To‘rtinchidan, 3-jadval va 1-rasm shuni ko‘rsatadiki, eng samarali yo‘l – avval tayyorlik yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda tajriba to‘plash, so‘ngra shu asosda sukuk va PPP kabi murakkab vositalarga o‘tish. Bu mantiq Markaziy bankning uch bosqichli yondashuviga mos keladi.

Maqola natijalarining chegaralari ham mavjud: ekspert baholar subyektivlikdan holi emas, yangi qonunning amaliy natijalari esa hali to‘liq namoyon bo‘lmagan. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda islomiy bank faoliyatining birinchi yillik statistikasi, kredit portfeli hajmi va sukuk chiqarish natijalari asosida miqdoriy modellashtirish o‘tkazilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

1. Kapital bozori to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishni tezlashtirish. Sukuk bo‘limida aktivlarni ajratish, investorlar huquqini himoya qilish va soliq neytralligi normalari aniq belgilanishi kerak.
2. Suveren sukuk dasturini ishga tushirish. Birinchi sukukni kam summada so‘mda (ichki bozor uchun) yoki xorijiy investorlarga mo‘ljallab chiqarish maqsadga muvofiq hisoblanadi. U keyingi emissiya uchun narx va shartlar namunasi bo‘ladi. Shu bilan birga, mablag‘lar real infratuzilma aktivlariga yo‘naltirilishi lozim.
3. Islomiy oynalar va banklarni bosqichma-bosqich kengaytirish. Kichik biznes uchun, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, uskuna lizingi va uy-joy moliyalashtirishda murabaha va ijara mahsulotlarini standartlashtirish lozim.
4. Shariat boshqaruvi va sud amaliyotini mustahkamlash. Islomiy moliya kengashi qarorlarining yagona standartlarini ishlab chiqish, sudyalar va advokatlar uchun maxsus o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
5. Kadrlar va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish. Xalqaro hamkorlikda (masalan, INCEIF bilan) malaka oshirish va aholi uchun islomiy mahsulotlar bo‘yicha ochiq axborot kampaniyalarini o‘tkazish.
6. Xorijiy investorlarni jalb qilish uchun platforma yaratish. Toshkent xalqaro investitsiya forumi kabi tadbirlarni sukuk roud-shoulari va islomiy fondlar bilan bog‘lash.
7. Monitoring tizimini joriy etish. Islomiy moliya segmentining depozitlar, moliyalashtirish hajmi, muammoli aktivlar va investor tarkibi bo‘yicha yillik hisobotini e’lon qilish.
8. Islomiy mikromoliyalashni hududlarga kengaytirish. Bugungi kunda islomiy mikromoliyalash deyarli to‘liq Toshkent shahrida jamlangan. Markaziy bank tomonidan namunaviy murabaha va ijara shartnomalarini tasdiqlash, hududiy mikromoliya tashkilotlariga islomiy mahsulotlarni joriy etishda metodik yordam ko‘rsatish va xalqaro moliya institutlarining (IsDB, IFC) kredit liniyalarini shu tashkilotlar orqali kichik biznesga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda 2026-yilda qabul qilingan va iyun oyida kuchga kirgan islomiy bank qonuni mamlakat moliya tizimida ikki tomonlama modelni yaratdi va islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun huquqiy poydevor qo‘ydi. Qiyosiy tahlil O‘zbekiston huquqiy va institutsional mezonlar bo‘yicha mintaqa yetakchilariga yaqinlashganini, ammo sukuk bozori va amaliy faoliyat bo‘yicha ortda qolayotganini ko‘rsatdi.

Fikrimizcha, birinchi navbatda islomiy mikromoliyalash, islomiy banklar orqali kichik biznesni moliyalash va raqamli mahsulotlarni yanada rivojlantirish kerak, chunki bu yo‘nalishlarda potensial va tayyorlik mos keladi. Strategik jihatdan eng muhim yo‘nalish – suveren va korporativ sukuk bo‘lib, uning amalga oshirilishi kapital bozori to‘g‘risidagi qonunga bog‘liq. Islomiy davlat-xususiy sherikligi (PPP), musharaka hamda takaful yo‘nalishlari esa xavfni boshqarish tizimi va kadrlar tayyorlangandan keyin kengaytirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. TIIF 2026: Uzbekistan's $4 trillion Islamic finance opportunity. https://www.intellinews.com/tiif-2026-uzbekistan-s-4-trillion-islamic-finance-opportunity-449136/
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 27.03.2026 yildagi O‘RQ-1126-son Qonuni.
3. Central Bank sees Islamic finance as key to formalizing shadow economy // Kun.uz, 25.10.2025. https://kun.uz/en/news/2025/10/25/central-bank-sees-islamic-finance-as-key-to-formalizing-shadow-economy
4. GCC backing and regulatory reforms driving Central Asia’s Islamic finance growth // https://www.arabnews.com/finance/gcc-backing-and-regulatory-reforms-driving-central-asias-islamic-finance-growth-2643148
5. Mannan, M. A. (1983). «Islamic Economics as Social Science: Some Methodological Issues», Journal of Research in Islamic Economics, 1(2), pp. 41-50.;
6. Hasanuzzaman, S. M. (1984). «Definition of Islamic Economics», Journal of Research in Islamic Economics, 1(2), pp. 51-53.;
7. Мухаммада Таки Усмани «Введение в исламские финансы». Published 2013 (2001). 8171012361 (ISBN13: 9785904491437) https://islommoliyasi.uz/uz/5680/;
8. Chowdhury Shahed, A. Islamic Banking: History and Development // Financial Express / A. Chowdhury Shahed. – URL http://old.thefinancialexpress-bd.com/2015/03/31/86909.
9. Karim N. Islamic microfinance: an emerging market niche / N. Karim, M. Tarazi, Z. Reilli.; H01PUBLIC10FocusNote149.pdf.;
10. Abdullah, Z., & Susamto, A. A. (2019). The role of investment-based Islamic crowdfunding for halal MSMEs: evidence from Indonesia. AlIqtishad: JurnalIlmu Ekonomi Syariah (Journal of Islamic Economics), 11(2). https://doi.org/10.15408/aiq.v11i2.1362.;
11. Holzhacker H. (2018). Uzbekistan Diagnostic paper: Assessing Progress and Challenges in Unlocking the Private Sector’s Potential and Developing a Sustainable Market Economy. (November). Retrieved from https://www.ebrd.com/documents/strategy-and-policycoordination/uzbekistandiagnostic-paper.pdf;
12. Hussain, M., Shahmoradi, A., & Turk, R. (2016). An Overview of Islamic Finance. In Journal of International Commerce, Economics and Policy. https://doi.org/10.1142/S1793993316500034.
13. Khan N. (2016). The Role of Finance in Economic Development. Ling Nan Journal of Banking, Finance and Economics, 6 (2016), 481–540. https://doi.org/10.1142/9789814733342_0011.
14. Астанакулов О. Ислом молияси асослари: тараққиёт босқичлари, истиқболлари. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021-yil.;
15. Жумаев Н. ва бошқалар. Халқаро молия муносабатлари. Дарслик 2003– С. 59-67.; Турсунов А. Тижорат банкларида исломий банк хизматларини ривожлантириш йўналишлари. PhD илмий даражасини олиш учун дисс. автореферати. Тошкент -2021 й. 59-б.;
16. Зайниддинов Р.Х. Ўзбекистонда ислом молиясининг ривожланиши: тўсиқлар ва тавсиялар. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2/2022, mart-aprel (№

00058).;

17. Зарипов, И. А. Исламские принципы финансирования. Экспертное обсуждение в Ассоциации российских банков / И. А. Зарипов. – URL: http://arb.ru/b2b/discussion/islamskie_printsipy_ finansirovaniya-9834871;

18. Хайдаров Ў. Республикамиз тижорат банкларида ислом молия тизимидан фойдаланишни такомиллаштириш. // Иқтисод ва молия. 2022, 2(150).;

19. Жўраев Х. Инвестиция тушунчасининг иқтисодий мазмуни ва аҳамияти // Иқтисод ва молия 2015, 8- сон.

20. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориен- тированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – С. 12-16.

21. KPMG. Uzbekistan: Law introducing Islamic banking enacted (2026-yil 26-may). kpmg.com.

22. Kinstellar. Uzbekistan introduces a legislative framework for Islamic banking (2026-yil aprel). kinstellar.com.

23. SpecialEurasia. Uzbekistan Approves the Law on Islamic Finance (2026-yil 7-aprel). specialeurasia.com.

24. Trend News Agency. Uzbekistan plans to issue sovereign Islamic bonds – Central Bank governor (2026). trend.az.

25. Bernama. Uzbekistan Enhancing Islamic Finance Regulatory Framework With INCEIF University’s Assistance (2026-yil 17-iyun). bernama.com.

26. AAOIFI. Shariah Standards va IFSB. Standards (xalqaro standartlar to‘plami). aaoifi.com, ifsb.org.